

Toshkent viloyatida demografik holat

2026- yil yanvar-iyun oylari uchun

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 629-son qaroriga muvofiq, **aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yakuniy natijalari 2027-yil 1-iyulga qadar** tayyorlanishi belgilangan. Ro'yxatga olishning yakuniy natijalari rasmiy e'lon qilinganidan so'ng doimiy aholi soni belgilangan tartibda, ro'yxatga olish natijalari asosida e'lon qilinadi. Shu munosabat bilan **2026-yil 1-iyul holatiga demografik ko'rsatkichlar** Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlar integratsiyasi bo'yicha shakllantirildi.

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar*
- II. Doimiy aholi soni 9*
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar*
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar*
- V. Aholi migratsiyasi*
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari*

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026- yilning 1-iyul holatiga Toshkent viloyatining doimiy aholisi soni **3 189,5** ming kishini tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan **1,8** % ga ko'paygan.

2026- yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **29 024** nafarni, vafot etganlar **8 452** nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **20 572** kishiga teng bo'ldi.

Viloyatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni **269** kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni **1 431** kishini, qayd etilgan nikohlar **6 933** birlikni, nikohdan ajralishlar **2 334** birlikni tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	3 189 496	<i>kishi</i>
Tug'ilganlar soni	29 024	<i>kishi</i>
Vafot etganlar soni	8 452	<i>kishi</i>
Xorijdan ko'chib kelganlar	269	<i>kishi</i>
Xorijga ko'chib ketganlar	1 431	<i>kishi</i>
Nikohlar soni	6 933	<i>birlik</i>
Nikohdan ajralishlar soni	2 334	<i>birlik</i>

II. Doimiy aholi soni


Toshkent viloyatida doimiy aholi soni 2026- yil 1- iyul holatiga ko'ra **3 189,5** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **55,4** kishiga yoki **1,8** % ga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 586,9** ming kishi (*jami aholi soniga nisbatan 49,8* %), qishloq joylarda esa **1 602,6** kishi (*50,2* %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 588,9** kishini (*49,8* %) erkaklar esa **1 600,6** kishini (*50,2* %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni (1- iyul holatiga, ming kishi)

	2025- yil	2026- yil	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Viloyat bo'yicha:	3 134,1	3 189,5	101,8
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	58,2	59,6	102,4
Olmalik	150,0	151,8	101,2
Angren	186,9	189,5	101,4
Bekobod	106,7	107,7	100,9
Ohangaron	42,5	43,0	101,2
Chirchiq	176,8	179,6	101,6
Yangiyo'l	88,0	90,1	102,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	114,8	116,4	101,4
Ohangaron	113,8	115,5	101,5
Bekobod	169,5	172,2	101,6
Bo'stonliq	178,6	179,6	100,6
Bo'ka	137,7	139,6	101,4
Quyi Chirchiq	118,5	120,3	101,5
Zangiota	178,0	183,9	103,3
Yuqori Chirchiq	142,8	145,4	101,8
Qibray	180,3	183,6	101,8
Parkent	183,4	186,5	101,7
Piskent	104,1	105,6	101,4
O'rta Chirchiq	141,7	144,5	102,0
Chinoz	149,3	151,5	101,5
Yangiyo'l	205,7	209,6	101,9
Toshkent	206,8	214,0	103,5

Toshkent viloyatida 2026- yil 1- iyul holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometr ga o'rtacha **210,5** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **3,6** kishiga ortgan (2025- yil 1- iyul holatiga 1 kv.km.ga **207,6** kishi).

Aholi zichligi (1- iyul holatiga, 1 kv.km ga to'g'ri keladigan aholi soni)




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **29 024** kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **18,4** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan **2 212** nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **8 452** kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **5,4** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan **538** nafarga ko'paygan.

Tug'ilganlar va vafot etganlar soni (yanvar-iyun oylarida, kishi)




Viloyatda tirik tug'ilganlar soni **29 024** kishini, shundan o'g'il bolalar soni **14 829** kishini (*jami tug'ilganlar soniga nisbatan 51,1 %*), qiz bolalar soni **14 195** kishini (*48,9 %*) hamda shahar joylarida **13 719** kishini (*47,3 %*), qishloq joylarida **15 305** kishini (*52,7 %*) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni **8 452** kishini, shundan erkaklar **4 768** kishini (*jami vafot etganlar soniga nisbatan 56,4 %*), ayollar **3 684** kishini (*43,6 %*) hamda shahar joylarida **4 518** kishini (*53,5 %*), qishloq joylarida **3 934** kishini (*46,5 %*) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi

(yanvar-iyun oylarida, kishi)




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **6 933** birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan **283** birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **2 334** birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,5** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025- yilning mos davriga nisbatan **4** birlikka ko'paydi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni


(yanvar-iyun oylarida, birlik)



Viloyatimizda qayd etilgan nikohlar soni **6 933** birlikni, shundan shahar joylarida **3 576** birlikni (**51,6 %**), qishloq joylarida **3 357** birlikni (**48,4 %**) tashkil etdi.

Viloyatimizda nikohdan ajralishlar soni **2 334** birlikni, shundan shahar joylarida **1 495** birlikni (**64,0 %**), qishloq joylarida **839** birlikni (**40,0 %**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi (yanvar-iyun oylarida, birlik)




V. Aholi migratsiyasi

2026- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **27 131** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **26 862** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **269** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **18 878** kishini, shu jumladan viloyatning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **17 447** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **1 431** kishini tashkil qildi.

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni (yanvar-iyun oylarida, kishi)



Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Viloyat bo'yicha:	27 131	26 862	269	18 878	17 447	1 431
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	924	920	4	428	427	1
Olmaliq	1 017	969	48	1 090	1 073	17
Angren	642	642	0	652	639	13
Bekobod	541	540	1	739	726	13
Ohangaron	554	546	8	456	454	2
Chirchiq	2 042	2 030	12	1 418	1 302	116
Yangiyo'l	1 274	1 270	4	553	535	18
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	408	404	4	395	340	55
Ohangaron	824	821	3	633	621	12
Bekobod	582	581	1	638	636	2
Bo'stonliq	684	684	0	1 031	754	277
Bo'ka	353	353	0	497	413	84
Quyi Chirchiq	808	750	58	659	511	148
Zangiota	3 784	3 783	1	1 575	1 553	22
Yuqori Chirchiq	1 604	1 554	50	1 024	808	216
Qibray	2 503	2 482	21	1 648	1 596	52
Parkent	420	420	0	465	443	22
Piskent	524	519	5	508	497	11
O'rta Chirchiq	1 501	1 480	21	1 056	944	112
Chinoz	454	448	6	508	395	113
Yangiyo'l	1 778	1 762	16	1 560	1 468	92
Toshkent	3 910	3 904	6	1 345	1 312	33

Viloyatga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarning asosiy qismi Quyi Chirchiq tumani (jami xorijdan ko'chib kelganlarga nisbatan 21,6%), Yuqori Chirchiq tumani (18,6%), Olmaliq shahri (17,8%) va boshqa hududlar (42,0%) hissasiga to'g'ri kelgan.

Viloyatdan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlarning asosiy qismi Bo'stonliq tumani (jami xorijga ko'chib ketganlarga nisbatan 19,3%), Yuqori Chirchiq tumani (15,0%), Quyi Chirchiq tumani (10,3%) va boshqa hududlar (55,4%) hissasiga to'g'ri kelgan.

VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.